

JINOIY DAROMADLARNI LEGALIZATSIYA QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14056616>

Husenov Mirshod Ixtiyorovich

*Departamentning Buxoro viloyat
Boshqarmasi Jondor tuman bo`limining
Katta tezkor vakili*

Annotatsiya

Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga jinoiy-huquqiy baho berish masalalari ochib berilgan, ushbu jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakatlar mazmuni tahlil qilingan hamda bir qancha davlatlarda jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, legallashtirish predmeti, jinoiy javobgarlik, jinoyatning obyektiv tomoni, xorijiy tajriba.

Аннотация

Раскрываются вопросы уголовно-правовой оценки легализации (отмывания) доходов, полученных преступным путем, анализируется содержание действий, составляющих объективную сторону этого состава преступления и зарубежный опыт.

Ключевые слово

легализация преступных доходов, предмет легализация, противодействие, уголовная ответственность, объективную сторону преступления, зарубежный опыт.

Annotation

The issues of criminal legal assessment of the legalization (laundering) of proceeds from crime are revealed, the content of actions that constitute the objective side of this crime and foreign experience are analyzed.

Keywords

money laundering, combating, crime, legalization of criminal proceeds, subject of legalization, criminal liability, the objective side of the crime, foreign experience.

Avvalambor, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda - pul mablaglari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo`lmasa, ularni o`tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yoki ulaming kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag`larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko`chirish usulini, pul mablag`lariga yoki boshqa mol-mulkka bo`lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo`lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi[1].

"Jinoiy daromadlarni legalizatsiya qilish," yoki boshqa so'z bilan aytganda, "pul yuvish" (money laundering), noqonuniy yo'llar bilan qo'lga kiritilgan mablag'larni qonuniy ko'rinishga keltirish jarayonidir. Bu jarayon orqali jinoyatchilar noqonuniy faoliyatdan kelgan daromadlarini qonuniy bo'lib ko'rinadigan operatsiyalar orqali yashirishga intilishadi. Pul yuvish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. **Joylashtirish (Placement):** Bu bosqichda noqonuniy daromadlar pul oqimi ichiga kiritiladi. Bu, asosan, mablag'larni moliyaviy institutlarga joylashtirish yoki pulni to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyotga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi.

2. **Buzib yuborish (Layering):** Bu bosqichda mablag'larni qator moliyaviy operatsiyalar orqali boshqa joylarga o`tkazib, asl manbani yashirishga harakat qilinadi. Misol uchun, ko'pchilik mamlakatlarda pul boshqa mamlakatlarga yuboriladi, keyin esa yangi yo'nalishlar bo'yicha qayta yo'naltiriladi.

3. **Birlashtirish (Integration):** Bu bosqichda mablag'lar qonuniy bo'lib ko'rinadigan iqtisodiy faoliyatga singdiriladi. Jinoyatchilar pulni qonuniy tarzda faoliyat ko'rsatadigan korxonalariga sarmoya kiritish orqali yoki qonuniy operatsiyalar orqali daromad ko'rinishida olishadi.

Pul yuvish jinoyati xalqaro miqyosda jiddiy jinoiy faoliyat sifatida baholanadi va unga qarshi ko'plab choralar, jumladan, banklarda mijozni tekshirish (KYC) va shubhali tranzaksiyalarni aniqlash tizimlari joriy etilgan. Bu jinoyatning oldini olish va nazorat qilish uchun ko'plab xalqaro tashkilotlar, masalan, FATF (Financial Action Task Force) va boshqa moliyaviy nazorat idoralari faoliyat olib boradi.

Jinoyatning obyektivi respublika iqtisodiy faoliyatining manfaatlari, jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan esa jinoyat yuqorida ko'rsatilganidek, noqonuniy topilgan daromadlar o`tkazish, aylantirish, almashtirish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi[2]. Shunday ekan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadigan

murakkab jarayon bo'lib, unga qarshi kurash choralariga, jumladan, ushbu salbiy hodisaning oldini olishga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada oshiradi.

O'z navbatida, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy ta'minlash moliyaviy, bank, bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalarni litsenziyalash va ro'yxatdan o'lkazish tartibini belgilovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ko'pgina mamlakatlarda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy chora-tadbirlar uchun o'ziga xos asos bo'lib xizmat qiluvchi "namunali" qonunlar mavjud.

Jumladan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasi hozirgi paytda 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrdagi Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida" gi PQ-3947-sonli qarori hamda boshqa ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Zero, ushbu masalada Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (Financial Action Task Force on Money Laundering – FATF) 2020-yilda O'zbekistonga tashrif buyurishi va baholashi ham muhim kasb etdi.

Ushbu o'zgarishlardan so'ng Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 28-iyunda qabul qilingan PF-6252-son farmoniga ko'ra, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Unga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro'yxati belgilandi, har uch yilda bir mara moliyaviy darajada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq mavjud tadbirlarni baholash tartibi joriy qilindi hamda Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining axborotni to'plash va unga ishlov berish bo'limi negizida yuridik

shaxs maqomiga ega bo'lmagan xavflami baholash markazi tashkil qilinib, uning asosiy vazifalari belgilab qo'yildi [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu sohada ko'plab kamchiliklar va muammoli holatlar o'z yechimi topmasdan kelmoqda. Jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlami legallashtirish uchun ushbu daromadlar jinoiy yo'l bilan topilgani isbotlash hamda so'ng ushbu mol-mulklami legallashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo ba'zi hollarda shaxsning daromadlari jinoiy yo'l bilan topilganligi sud tartibida tasdiqlanmasdan, ba'zi shaxslaming mulklari konfiskatsiya qilinish holatlari uchrab turmoqda.

Ikkinchidan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlami legallashtirish sohasini tartibga soluvchi yakdil qonun hujjarlarining mavjud emasligidir. Shu sababli, ushbu sohada ishlami amalga oshirishda turli xil qarashlar, kelishmovchiliklar kelib chiqmoqda.

Xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarida ushbu sohani tartibga soluvchi bir qancha yakdil qonun hujjatlari mavjud. Jumladan, "Bank siri to'g'risida"gi qonun (Bank Secrecy Act-BSA), Kormpsiyalashgan va reketchilik tashkilotlari to'g'risida"gi qonun (RICO 1978 yil), Pul yuvishga qarshi kurash to'g'risidagi qonun (1986-yilgi qonun), Giyohvand moddalarni iste'mol qilishni nazorat qilish to'g'risidagi qonun (1988-yil), "Federal depozitlami sug'urtalash to'g'risida"gi qonun, "Jamiyatni rivojlantirish qonuni" (Annunzio-Wiley qonuni, 1992) va boshqa tartibga soluvchi hujjatlar mavjuddir[4].

E'tiborli jihati, barcha banklar va moliya tashkilotlari istalgan valyutadagi o'n ming AQSH dollari miqdoridagi barcha bank operatsiyalari, sayyohlik cheklari, pul o'tkazmalari haqidagi ma'lumotlami doimiy ravishda saqlashlari va yangi mijozlar haqida barcha ma'lumotlami o'rganib chiqishlari lozim.

O'z navbatida ushbu tartib aviakompaniyalar, moliyaviy kompaniyalar, mehmonxonalar, lombardlar, restoranlar va ulgurji sotuvchilaming operatsiyalariga ham taalluqlidir[5],

Shubhasiz, mansabdor shaxslar va butun jamiyat tomonidan bu kabi munosabatlarga faol munosabatda bo'lishi jinoiy faoliyatdan olinadigan daromadlami legallashtirish jinoyatini oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu masalada bir qancha xorijiy davlatlarda ham o'ziga xos tartiblar o'matilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xususan, Shveytsariya jinoiy daromadlami legallashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunning 9-moddasida keltirilishicha, Jinoyat kodeksida keltirilmagan bo'lgan taqdirda ham moliyaviy vositachilik bilan shug'ullanuvchilar

jinoiy daromadlarni legallashtirish deb shubha ostida bo'lgan har qanday moliyaviy operatsiyalar haqida xabar berishlari lozim.

Hatto, bunday ma'lumotni taqdim etish majburiyatini buzish beparvolik natijasida sodir qilingan bo'lsa ham ushbu qilmish 200000 Shveytsariya frankigacha jarima bilan jazolanadi[6], Bu kabi tartiblar va jazo tiziming o'rnatilishi va amaliyotda mustahkam qo'llash mexanizmi ishlab chiqish jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar legallashtirish jarayonini kamaytirish xizmat qilishi, shubhasiz.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu jinoyatga qarshi faoliyatni yanada takomillashtirish uchun quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Birinchidan, qonunchilikda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi aniqlashtirish va ushbu daromadlarni konfiskatsiya qilishning huquqiy mexanizmini yaratish.

Jinoiy daromadlarni legal daromadga aylantirish, ya'ni pul yuvish jarayoni, qonuniy ko'rinishga ega bo'lish uchun noqonuniy mablag'larni iqtisodiy tizimga qo'shish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon jinoyatchilar tomonidan o'z daromad manbaini yashirish va noqonuniy mablag'larini qonuniy daromad sifatida ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Legalizatsiya jarayonida jinoiy daromadlar ko'pincha quyidagi yo'llar orqali qonuniy ko'rinishga keltiriladi:

1. **Soxta kompaniyalar tashkil etish:** Jinoyatchilar qog'ozda mavjud, ammo real faoliyati yo'q kompaniyalar ochishadi. Ushbu kompaniyalar orqali noqonuniy mablag'lar qonuniy daromad sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, mavjud korxonalar orqali noto'g'ri hisobot berib, noqonuniy mablag'lar qonuniylashtirilishi mumkin.

2. **Ko'chmas mulk va qimmatli aktivlar xarid qilish:** Jinoyatchilar noqonuniy mablag'larni ko'chmas mulk, qimmatbaho san'at asarlari, zargarlik buyumlari yoki boshqa yuqori qiymatli aktivlarni sotib olish uchun ishlatishadi. So'ngra ushbu aktivlarni sotish orqali qonuniy daromad olishadi.

3. **Qarzlarni va kreditlarni orqali pulni oqlash:** Jinoyatchilar noqonuniy daromadni kredit yoki qarz shaklida qaytarib olish orqali mablag'larini legalizatsiya qilishga harakat qilishadi. Ular o'z kompaniyalariga qarz berish yoki bankdan kredit olish orqali mablag'larni qonuniy aylanishga qo'shadilar.

4. **Kazino va qimorxonalar orqali yuvish:** Jinoyatchilar noqonuniy mablag'larini qimorxonada pul o'ynash orqali qonuniylashtirishga harakat qilishadi. Yutgan mablag'lar qonuniy daromad sifatida qaytarib olinadi.

5. **Xalqaro bank o'tkazmalari:** Jinoyatchilar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul o'tkazish orqali asl manbani yashiradilar. Bu orqali mablag'larning asl kelib chiqishini aniqlash qiyinlashadi.

Bunday faoliyatlarni oldini olish uchun moliyaviy institutlar va nazorat organlari jinoiy daromadlarni kuzatish va aniqlash uchun shubhali tranzaksiyalar monitoringi, mijozni tekshirish (KYC), va shaffof hisobot tizimlarini joriy etgan.

Ikkinchidan, shubha ostidagi moliyaviy operatsiyalarni aniqlash, ularni ro'yxatga olish va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlashga qo'yiladigan talablarni, shuningdek, tegishli materiallarni saqlashga qo'yiladigan talablarni belgilash.

Uchinchidan, shubhali operatsiyalar to'g'risida davlat organlariga xabar berishga majbur bo'lgan moliyaviy institutlar doirasini aniq ravishda belgilab qo'yish.

To'rtinchidan, shubhali moliyaviy operatsiyalar to'g'risida vakolatli organni xabardor qilish tartibini ishlab chiqish.

Beshinchidan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga hamda shubhali moliyaviy operatsiyalarga aloqador bo'lgan hujjatlarini taqdim qilmagan yoki hujjatlarni yo'q qilgan mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlikni belgilash.

ADABIYOTLAR

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 5-jild: Jinoyat to'g'risida ta'limot. OTM uchun darslik. - T.: "TDYU" nashriyoti, 2010. - 438 bet.

2. 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" qonun

3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_vangi/iinoiy_daromadlarni_legallashtirishga_qarshi_kurashish_-_milliy_daraiada

4. Законодательство США: нормативно-правовые акты США [Электронный ресурс]. URL: http://www4.law.comell.edU/uscode/1_8.html

5. Лилли, П. Грязные сделки. Тайная правда о мировой практике отмывания денег, международной преступности и терроризме. М.: Феникс, 2015. 400 с.

6. Закон об отмывании денежных средств Швейцарии (Geldwдschereigesetz) [Электронный ресурс]. URL: <http://www.worldbiz.ru/jurisdiction/switzerland/>